



Buxoro viloyati
statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral oylarida Xizmatlar sohasining rivojlanishi





Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona
va tashkilotlar ulushi**

63,4 %

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**

67,2 %

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

902,0 ming so'm

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmining o'sish sur'ati**

105,3 %

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

1 745,8 mlrd. so'm

**Ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmining o'sish
sur'ati**

106,8 %



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 745,8 mlrd. so'mga** yetib, uning nominal hajmi **259,9 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,8 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar –fevral oylarida)





Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar –fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1 745,8	106,8
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	73,7	107,0
Moliyaviy xizmatlar	291,9	123,4
Transport xizmatlari	380,9	102,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>353,4</i>	<i>102,3</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	79,2	100,2
Savdo xizmatlari	570,8	105,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	45,4	100,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	85,6	100,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	32,2	96,6
Ijara xizmatlari	51,5	117,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	33,9	102,7
Shaxsiy xizmatlar	34,8	101,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	17,7	88,3
Boshqa xizmatlar	48,2	97,8



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Boshqa xizmatlar



Ko'chmas mulk bilan
bog'liq xizmatlar



Shaxsiy xizmatlar



Sog'liqni saqlash
sohasidagi xizmatlar



Kompyuterlarni
ta'mirlash xizmatlari



Me'morchilik sohasidagi
xizmatlar

Savdo xizmatlari

32,7 %

Transport xizmatlari

21,8 %

Moliyaviy xizmatlar

16,7 %

Ta'lim sohasidagi
xizmatlar

4,9 %

Yashash va ovqatlanish
xizmatlari

4,5 %

Aloqa va axborotlash -
tirish xizmatlari

4,2 %

Ijara xizmatlari

3,0 %



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **32,7 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **1,0 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari umumiylajmiy hajmda **32,6 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan - **1,2 %**.

2021- yil yanvar-fevral oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**23,4 %**), ijara sohasida (**17,4 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**7,0 %**) savdo xizmatlarida (**5,9 %**), qayd etildi.

Moliyaviy (**29,1 %**) va sog'liqni saqlash (**18,9 %**) sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining pasayishi kuzatildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**152,5 %**). Transport xizmatlarda biroz o'sish kuzatilgan (**0,5 %**).




Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,7 %** ni tashkil etdi, bu esa **570,8 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **484,3 mlrd. so'mga** yoki umumiyligi hajmining **32,6 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y. yanvar-fevral

Xizmatlar hajmi
484,3 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
105,1 %

Ulushi
32,6 %



2021 y. yanvar-fevral

Xizmatlar hajmi
570,8 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
105,9 %

Ulushi
32,7 %



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i **76,9 %** ini tashkil etdi.


Savdo xizmatlari tarkibi

(2021- yil yanvar –fevral oylarida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo ulushi **78,7 %** ga yetdi.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-fevral oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **291,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **227,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **15,3 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **64,0** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **23,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning o'sish sur'ati **152,5 %** ga yetgan.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,9 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-fevral oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **92,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,2 %** ga to'g'ri kelgan.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yil yanvar-fevral oylarida)

**2020- y.
yanvar-fevral**

**66,6
mlrd. so'm**

110,8 %

4,5 %

**2021 y.
yanvar-fevral**

**73,7
mlrd. so'm**

107,0 %

4,2 %





Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral


Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 95,8 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.
yanvar-fevral**

**2021- y.
yanvar-fevral**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-fevral oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,6 %** ga yetgan.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar

81,7
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

85,6
mlrd. so'm

2020- y.
yanvar-
fevral



2021- y.
yanvar-
fevral

107,5 %

O'sish sur'atlari, % da

100,3 %

2021- yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **85,6** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi ulushi **4,9** % ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi **81,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish **7,5** % darajasida qayd etilgan.




Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi G'ijduvon (**6 682,1** mln. so'm), Buxoro (**2 690,1** mln. so'm), Jondor (**2 277,1** mln. so'm), Romitan (**1 854,7** mln. so'm) va Shofirkon (**1 695,2** mln. so'm) tumanlari hamda Buxoro shahrida (**62 346,0** mln. so'm) qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi, mln. so'm (2021- yil yanvar-fevral oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-fevral oylarida Buxoro shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **67 383,2** mln. so'mga teng bo'lgan.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalig'an va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

67,2

79,2

2020- y.
yanvar-fevral 2021- y.
yanvar-fevral



O'sish
sur'ati, % da

102,6

100,2

2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **12,0** mlrd. so'mga ortdi.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

83,1 %

2021- y. yanvar-fevral

16,9 %

15,6 %

84,4 %

2020- y. yanvar-fevral

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,1 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilda ularning ulushi **84,4 %** ni tashkil etgan.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi
bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.
yanvar-fevral

29,2
mlrd. so'm

115,5 %

2,0 %

Xizmatlar
hajmi

O'sish
sur'ati

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

2021- y.
yanvar-fevral

32,2
mlrd. so'm

96,6 %

1,9 %






2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-fevral oylarida)



2021- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Buxoro shahriga tegishli – **38,5 %** (2020- yilda **38,3 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Qorovulbozor tumani 1,6 % (2020- yilda 1,6 %) qayd etildi.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021 y.	2020 y.
Buxoro viloyati *)	1745,8	106,8	110,1
Olot	64,7	105,0	104,5
Buxoro	99,7	103,3	105,0
Vobkent	87,1	102,7	107,8
G'ijduvon	230,7	104,7	105,1
Jondor	89,1	106,8	104,0
Kogon	60,1	113,4	106,0
Qorako'l	80,8	103,9	104,9
Qorovulbozor	27,2	106,3	80,2
Peshku	91,1	113,2	105,4
Romitan	98,2	109,5	104,6
Shofirkon	79,4	107,1	104,5
shaharlar:			
Buxoro sh.	670,8	107,1	114,4
Kogon sh.	66,9	108,4	106,0

*) shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

902,0
ming so'm

123,8 ming
so'mga

105,3 %



O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **902,0** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **778,2** ming so'mni tashkil etgan.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**18 347
birlik**

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

118,7 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

**2 892
birlikga**

63,4 %

Ularning umumiyl sonidagi ulushi





Buxoro viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,4 %**, sanoat **15,9 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,1 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **9,6 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **64,6 %**, sanoat **15,2 %**, qurilish **10,5 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **9,7 %** ni tashkil etgan.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi




2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **67,2** % ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

1- mart holatiga

2021 y.

2020 y.

81,8 %

78,0 %

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **81,8** % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: (65) 223-79-41